

2-TOM, 6-SON


O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati tahlili

Xolmuxammedov Abrorbek Alisher o'g'li

DTPI iqtisodiyot yo'nalishi talabasi

E-mail: abror230602@gmail.com

Mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash bo'yicha amalga oshirilayotgan kompleks chora-tadbirlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish va barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlash imkonini bermoqda. 2000-2021 yillarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 31,0 foizdan 51,2 foizga o'sib, 20,2 foiz birlikka ortgan (1-rasm).



1-rasm. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi foizda)1

2023 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subektlarining YaIMdagi ulushi 51,2 % ni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar- dekabrda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 51,2 % ni tashkil qilib, 2022- yilning tegishli davriga nisbatan 0,4 punktga kamaygan.

1 Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).tayyorlangan.



2-TOM, 6-SON


Kamayishning asosiy sababi, yirik tadbirkorlik subyektlarida qo‘shilgan qiymat hajmining oshishi bilan ifodalanadi.

2024- yil 1- yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 14,0 birlikni tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 3,9 birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining (har 1000 aholiga nisbatan) eng yuqori ko‘rsatkichi Toshkent shahrida 29,2 birlik, Navoiy viloyatida 21,0 birlik, Sirdaryo viloyatida 17,3 birlik, Jizzax viloyatida 16,4 birlik va Buxoro viloyatida 16,3 birlikka yetdi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan kichik tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo‘yicha qabul qilingan qaror va farmonlari ijrosi natijasida 2018-2023- yillarning yanvar-dekabr oylari davomida jami 510,1 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko‘p yangi subyektlar savdo sohasida – 189,5 mingta (37,1 %), xizmatlar sohasida – 123,4 mingta (24,2 %), sanoat sohasida – 99,0 mingta (19,4 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 61,1 mingta (yoki 12,0 %) va qurilish sohasida – 37,1 mingtani (7,3 %) tashkil etgan.

2023 yil holatiga ko‘ra kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining yalpi ichki mahsulotdagi hissasi 51,2 foizni, sanoatdagi ulushi 26,9 foizni, qurilishdagi ulushi 74,7 foizni, bandlikdagi ulushi 74 foizni, eksportdagi ulushi 29 foizni va importdagi ulushi 50,7 foizni tashkil etdi (2-rasm).




2-TOM, 6-SON

2-rasm. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutayotgan o'rnining tahlili²

Bugungi kunda mamlakatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes va tadbirkorlik sube'ktlarining mamlakatimiz iqtisodiyotida tutayotgan o'rnining kengayib borishini xisobga oladigan bo'lsak, uning faoliyatini samarali boshqarish eng dolzarb masalalardan biridir.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar 2024 yilning 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni 417,1 mingtani tashkil etdi (3-rasm).



3-rasm. Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), ming birlikda, 1 yanvar holatiga³

2024 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) soni jami 417 080 tani, shundan yangi tashkil etilganlari

2 Muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).tayyorlangan.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).tayyorlangan.



2-TOM, 6-SON

86 030 tani tashkil etdi. Shu o'rinda, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 apreldagi PF-113-son Farmoniga asosan, davlat organlarida mavjud ma'lumotlar bazalarining dolzarbligini va statistik axborotlarning bir xilligini ta'minlash maqsadida Soliq qo'mitasi, Statistika agentligi va Adliya vazirligining davlat ro'yxatidan o'tgan yuridik shaxslar haqidagi ma'lumotlar bazalari to'liq xatlovdan o'tkazildi va aniqlangan farqlar birxillashtirildi.

2024 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'pi Toshkent shahrida 87 458 tani yoki jamiga nisbatan 21,0 % ni, Toshkent viloyatida 38 953 tani yoki jamiga nisbatan 9,3 % ni va Samarqand viloyatida 37398 tani yoki 9,0 % ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Hududlar bo'yicha 2024 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlikda⁴

Hududlar	Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni, ming birlik	Jamiga nisbatan, %da
O'zbekiston Respublikasi	417,1	100,0
Toshkent shahri	87,5	21,0
Toshkent viloyati	39,0	9,4
Samarqand	37,4	9,0
Farg'ona	36,2	8,7
Qashqadaryo	28,0	6,7
Buxoro	27,6	6,6
Andijon	24,4	5,8
Xorazm	23,9	5,7
Namangan	23,1	5,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	22,1	5,3
Surxondaryo	20,6	4,9


⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz). tayyorlangan.



2-TOM, 6-SON

Navoiy	19,5	4,7
Jizzax	16,7	4,0
Sirdaryo	11,2	2,7

2024 yil 1 yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har 1000 aholiga nisbatan 14,0 birlikni tashkil etdi (4-rasm).




4-rasm. O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni dinamikasi (har 1000 aholiga nisbatan, birlikda) (1 yanvar holatiga)5

2023 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichi Toshkent shahrida 29,2 birlik, Navoiy viloyatida 21,0 birlik, Sirdaryo viloyatida 17,3 birlik, Jizzax viloyatida 16,4 birlik va Buxoro viloyatida 16,3 birlikni tashkil etgan (5-rasm).

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).tayyorlangan.



2-TOM, 6-SON



5-rasm. O'zbekiston Respublikasi hududlarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni dinamikasi (har 1000 aholiga nisbatan, birlikda) (1 yanvar holatiga)6

2023 yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Toshkent shahri – 18,9 %, Farg'ona viloyati – 9,3 %, Samarqand viloyati – 8,8 %, Toshkent viloyati – 8,1 %, Xorazm viloyati – 7,4 %, Qoraqalpog'iston Respublikasi – 7,3 % va Qashqadaryo viloyati – 6,9 % hissaloriga to'g'ri keldi (2.1.2-jadval).

2-jadval

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, ulushi va farqi, (ming kishi)7

	2022 yil	Jamiga nisbatan ulushi, %da	2023 yil	Jamiga nisbatan ulushi, %da	(+;-)
O'zbekiston Respublikasi	90 177	100,0	86030	100,0	-4 147
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 308	4,8	6 247	7,3	1 939
viloyatlar:					

6 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).tayyorlangan.

7 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).hisoblangan.



2-TOM, 6-SON

Andijon	5 406	6,0	4 185	4,9	-1 221
Buxoro	4 413	4,9	5 633	6,5	1 220
Jizzax	4 505	5,0	4 424	5,1	-81
Qashqadaryo	8 551	9,5	5 922	6,9	-2 629
Navoiy	4 323	4,8	3 796	4,4	-527
Namangan	5 542	6,1	4 636	5,4	-906
Samarqand	10 613	11,8	7 570	8,8	-3 043
Surxondaryo	4 083	4,5	3 804	4,4	-279
Sirdaryo	2 073	2,3	2 203	2,6	130
Toshkent viloyati	6 799	7,5	6 940	8,1	141
Farg'ona	8 828	9,8	8 036	9,3	-792
Xorazm	5 655	6,3	6 347	7,4	692
Toshkent shahri	15 078	16,7	16 287	18,9	1 209

sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – 189,5 mingta (yoki 37,1 %), xizmatlar sohasida – 123,4 mingta (yoki 24,2 %), sanoat sohasida – 99,0 mingta (yoki 19,4 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 61,1 mingta (yoki 12,0 %) va qurilish sohasida – 37,1 mingta (yoki 7,3 %) tashkil etilgan.

3-jadval

2022-2023 yillar yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari⁸

	O'lchov birligi	2022 y.	2023 y.	(+;-)
Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni	birlik	523 556	417 080	-106 476
Yangi tashkil etilgan	birlik	90 177	86 030	-4 147
Kichik tadbirkorlik ulushlari:				
YaIM	%	51,6	51,2	-0,4
Sanoat	%	26,0	26,9	0,9
Qishloq, o'rmon va baliqchilik	%	94,8	94,8	-

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari asosida (stat.uz).tayyorlangan.



2-TOM, 6-SON

xo'jaligi				
Investisiya	%	47,9	51,4	3,5
Qurilish	%	71,5	74,7	3,2
Chakana savdo	%	84,7	83,8	-0,9
Xizmatlar	%	49,4	47,7	-1,7
Yuk tashish	%	47,4	50,8	3,4
Yuk aylanmasi	%	72,4	73,5	1,1
Yo'lovchi tashish	%	92,4	91,6	-0,8
Yo'lovchi aylanmasi	%	95,0	95,1	0,1
Eksport	%	31,2	29,0	-2,2
Import	%	49,5	50,7	1,2

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo'lishlari kerak.

